

## O'QUVCHILARINING OPTIMAL SONINI BELGILASH.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7893433>

**Badalova Maqsuda Umarovna**

*A.Avloniy nomidagi ITI*

*MMTB mudiri*

[umaksuda\\_69@gmail.com](mailto:umaksuda_69@gmail.com)

+ 998 90 990 02 80

**Sharipov O'tkir Hikmatullaevich**

*A.Avloniy nomidagi ITI*

*katta ilmiy xodimi*

[utkir\\_84@mail.ru](mailto:utkir_84@mail.ru)

+ 998 99 706 12 40

Rivojlangan davlatlarining ta'lif tizimlarini o'rghanar ekanmiz, ushbu ta'lif tizimlarining bugungi kundagi muvaffaqiyatlarining sabablariga duch kelamiz. Ba'zi ta'lif sohasidagi tadqiqotchilar ta'lif tizimidagi muvaffaqiyatlarning asosiy sabablaridan biri sifatida sinfdagi o'quvchilar sonining kam bo'lishini keltirib o'tishsa, ba'zi olimlar esa bu fikrga qo'shilmaydilar. So'nggi yillarda G'arb davlatlarida maktablarda sinf qamrovini kamaytirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda va bu islohotlar ko'pincha muvaffaqiyatli amalga oshmoqda. Buning sabablaridan biri sifatida G'arb davlatlaridagi demografik ko'rsatkichlarning yildan yilga pasayotganligi ko'rsatiladi.

Sinfda, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quvchilar sonining belgilangan me'yordan ko'p ekanligi dars samaradorligiga erishishga hamda o'quvchilarning o'zlashtirish ko'rsatkichlarining keskin tushib ketishiga olib kelishi mumkin. Qonun hujjatlarida, jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 15 martdag'i "Umumiyl o'rta ta'lif to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaroriga muvofiq, sinfda o'quvchilar soni 35 nafardan ortmasligi kerak. Namunaviy loyiha bo'yicha qurilmagan, moslashtirilgan binolarda hamda o'quvchilar soni yetarli bo'limgan, olis tog'li hududlarda joylashgan, ta'lif o'zbek tilida olib borilmaydigan maktablarda o'quvchilar soni sinflardagi mavjud shart-sharoitdan kelib chiqib belgilanadi. Ammo ba'zi hududlarda, jumladan demografik natijalari yuqori bo'lgan poytaxt maktablarida ba'zi sinflarda o'quvchilar soni 40-45 nafarni tashkil etishini kuzatish mumkin. Bunday holatda sifatli ta'lif haqida gapirishning o'zi haqiqatdan yiroq sanaladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinflarda bir sinfda


o'quvchilar qamrovining me'yorlardan ortishi ta'lidan ko'zlangan samaradorlikka erishishga to'sqinlik qiladi.

Yuqorida keltirib o'tilgan omillar sababli ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'quvchilarining optimal sonini belgilash bugungi kunda dolzar ekanligi, mazkur masala yuzasidan etarlicha chora tadbirlar belgilashni taqozo etadi.

Ushbu muammoning muqobil yechimlari hamda mavjud chet el tajribasini o'rganish maqsadida qator G'arb va Sharq davlatlarida boshlang'ich va o'rta maktablarda o'quvchilar sonining qanday belgilanganligini o'rganish maqsadida G'arb olimlaridan Matthew M., Grover J., Michael G., Braker B., Farrie D., Sciarra D., Jackson, Kirabo C., Johnson, Rucker C., Schanzenbach D., Achilles C., Shin Y., Bascia N., Heilig J., Williams A., Jez S., Jepsen C., Rivkin S., Babcock P., Betts J., King J., Lubienski S., Magnuson K., Ruhm C., Waldfogel J., Finn J. kabi tadqiqotchilar qator izlanishlar olib borilganlar. Respublikamiz olimlaridan Sh.Sharipov, B.Abdullaeva, A.Akromov, A.Xalikov, F.Ibragimova, M.Toshpulatova, A.Sadikovaning izlanishlarida ta'lim tizimini mazmunini takomillashtirish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazilgan. Ammo Respublika xalq ta'limi tizimida sinflarda o'quvchilar soning ko'pligi hozirgi kunda ham muammo sifatida ko'tarilib kelinmoqda.

Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda o'quvchilarining optimal sonini belgilash yuzasidan xalqaro tajribalar ham o'rganilib taqiq qilindi. Quyidagi 1-diagramma ko'rsatkichlarida ko'rinish turibdiki, aholi soni nisbatan ko'p bo'lgan Yaponiya va Janubiy Koreya kabi davlatlarda boshlang'ich va o'rta maktablarda qamrab olingan o'quvchilar soni G'arb davlatlaridagi ko'rsatkichlardan yuqoriqoq. Ko'rsatkichlarda Sharq davlatlarda o'quvchilar sonini ko'proq ekanligini ko'rib o'tishimiz mumkin, bu esa bevosita ushbu davlatlarda demografik ko'rsatkichlarning yuqoriligi bilan izohlanadi. Demak, demografik ko'rsatkichlar yuqori bo'lgan davlatlarda kam sinfli maktablarni tashkil etish murakkabligicha qolmoqda.

### 1-diagramma




Mamlakatimizda mavjud maktablardagi boshlang'ich sinflarda o'quvchilar soni darsning samarati tashkil etilishida murakkabliklarni vujudga keltirmoqda. Respublikadagi mavjud holatni aniqlash hamda boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning optimal sonini belgilash maqsadida boshlang'ich sinflarda faoliyat olib borayotgan pedagog xodimlar o'rtasida onlayn so'rvonoma o'tkazildi. Mazkur tadqiqotda jami **2705 nafar** respondentlar ishtirok etishdi.

Yuqoridagi so'rvonoma natijalari tahliliga ko'ra, respondentlarning **33.9%*i*** o'z sinflarida 30 nafardan ko'p o'quvchi tahsil olayotganligini ma'lum qilishgan.

## 2-diagramma

1. Siz faoliyat yuritayotgan maktabda boshlang'ich sinflarda o'quvchilar soni necha nafarni tashkil etadi? (har bir sınıf doirasida)

2 705 ответов



Shuningdek, so'rvonomada ishtirok etgan respondentlarning qariyb **73%*i*** sinfda o'quvchilar sonining ko'p bo'lishi dars samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblashadi.

### 3-diagramma

2. Boshlang'ich sinflarda bir sinfda o'quvchilarning belgilangan me'yordan ko'pligi dars samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatadi?

2 705 ответов



Shuningdek, so'rovnoma da ishtirok etgan boshlang'ich sinf o'qituvchilarining **89%ni** sinfda o'quvchilar sonini kamaytirish o'quvchilarni fanlarni o'zlashtirishlari va darsni samarali tashkil etishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblashadi.

### 4-diagramma

3. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar sonini kamaytirish bolalarning fanlarni o'zlashtirishi hamda dars samaradorligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi deb hisoblaysizmi?

2 705 ответов



So'rovnoma dagi "Boshlang'ich sinflarda ko'zlangan dars samaradorligiga erishish hamda o'quvchilarning fanlarni o'zlashtirish uchun bir sinfda nechta o'quvchi bo'lishi kerak, deb hisoblaysiz?" mazmunidagi so'rovga respondentlarning **50%**dan oshig'i 20-22 nafar javobini berishgan.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar sonining ko'p ekanligi murakkab mavzularni tushuntirish pedagogga qiyinchiliklar tug'diradi. O'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari shart bo'lgan fanlar - ona tili, matematika darslari guruhlarga bo'lib o'tilmaydi. Bu esa o'quvchilarda fanlarni o'zlashtirish bilan bog'liq muammolar yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bunday holat barcha fanlarda

kuzatiladi. Sifatli ta'lim hamda samarali darslarni tashkil qilishda sinfdagi o'quvchilarning optimal sonini aniqlash hamda ushbu masala yuzasidan aniq chora tadbirlar belgilash bugungi kunda muhim sanaladi.

Joriy yilning 10-17-mart kunlari Buxoro viloyatida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida boshlang'ich sinflarda ta'lim sifati va samaradorliligin oshirishda sinf o'quvchilarning optimal sonini belgilash mavzusida pedagoglar va keng jamoatchilik bilan uchrashuv va seminarlar tashkil qilindi. Pedagoglar, ota-onalar va keng jamoatchilikning talabi shunday: sinfda o'quvchilar soni 25 nafardan oshmasligi lozim. Bu ta'lim-tarbiya sifati yuksalishiga, muallimning mashaqqatli mehnati sal bo'lsada yengillashib, sifat jihatdan o'sishiga xizmat qiladi. Qolaversa, sinfda gigienik muhit yaxshilanib, o'qituvchi barcha o'quvchilar bilan yakka tartibda ishlay oladi.

So'nggi yillarda G'arb davlatlarida maktablarda sinf qamrovini kamaytirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda va bu islohotlar ko'pincha muvaffaqiyatli amalga oshmoqda. Buning sabablaridan biri sifatida G'arb davlatlaridagi demografik ko'rsatkichlarning yildan yilga pasayotganligi ko'rsatiladi.